GULANDOM TOG'AYEVA SHE'RIYATIDA TABIAT VA INSON RUHIYATI UYG'UNLIGI

Alimova Mohidil

mohidilalimova97@mail.com +998944629587

Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shoira Gulandom Tog'ayeva she'rlari kompozitsiyasida badiiy detallar, jumladan uning peyzaj, narsa-predmet, interyer kabi turlaridan keng foydalanganiva asar tuzilishining o'ziga xosligini ta'minlagani ilmiy tahlil etiladi.Shoira ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob'ektivligini yuzaga chiqarishda qahramon holati uning ichki ruhiy dunyosi, tasvirning aniq va ishonchliligi, muallifning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda badiiy detallar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar:kompozitsiya,badiiy detal, obraz, tabiat, peyzaj detal,predmet detal,ekspozitsiya,interyer detal,badiiy konstepstiya

АННОТАЦИЯ

В данной статье будет проведен научный анализ рассказов , в Гуландом Тоғаева которых широко использованы художественные детали, в том числе такие его виды, как пейзаж, вещь-предмет, интерьер, и , которые обеспечили оригинальность структуры произведения. В выводе на поверхность объективности образа, творческим кредо которого является писатель, состояние героя, его внутренний духовный мир, ясность и достоверность образа, художественная детальность работы приобретают важное значение при выводе на поверхностьхудожественного замысла детали становятся важными.

Ключевые слова:композиция, художественная деталь, образ, природа,пейзаж деталь,предметная деталь, экспозиция, интерьердеталь, художественнаяконцепция

ANNOTATSIYA

In this article, the writer Thanks the Gulandom Togayeva kompozitsiya story of artistic details, including its landscape, things-objects, interiors, such as the widely used cultivars havei made that provide specific and the gameis scientific analysis. The writer is the occurrence of internal mental image out of his hero status kredosi creative ob'ektivligi the world, and the reliability of the image is clear, the author details in the likelihood of out your artistic artistic goals] which plays an important role.

Keywords:kompozitsiya, artistic details, images, nature, landscape details,item details, exposition, interior details, artistic konstepstiya

Ijod- g'oyatda sirli jarayon. Bu sehrli saltanat egasi ijodkorni yechilishi qiyin tenglama oldida turgan sergarga o'xshatish mumkin. U faqat o'zi o'ylaganlarni emas, ilohiy nur orqali shuuriga singan qalb sadosini ham qog'ozga tushiradi.Shuning uchun ham hech qaysi ijodkor kimgadir o'xshab yozmaydi, istasa-da buning iloji yo'q. Chunki she'r hech qaysi qolipga sig'maydi. U isyonkor ruh timsoli. Purviqor tog'lar belanchagi purhikmat she'rlarini belagan shoira Gulandom Tog'ayeva ijodini ham tabiat nafasi ufrgan hijron,sog'inch kabi tuyg'ular sarchashmasidan suv ichgan qalb mahsuli deya olamiz. Vaxshivor tog'lari shoira uchun ijod manbai ekanligini ushbu misra oraqali sezish mumkin:

Vaxshivorning tog'lari sizdek bo'lmoq istayman,
Bo'lmasa ham alqorim , bo'lmasa ham viqorim.

Qiynoqlarga och dildan bitta qo‘shiq istayman,
Eng cho‘qqingiz bo‘lsin mening eng past viqorim.

Mana shu misralarida shoiraning tabiatiga xos unsurlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. U o‘z vatanini sevadi.Insoniyat intilib yashaydigan ammo yetishish qiyin bo‘lgan ma’naviy axloqiy marralar , yuksalishi kerak bo‘lgan burch, iymon, vijdon kabi tushunchalar tasirida yonadi. Tabiatning har bir zarrasidan o‘tinch,yupanch so‘raydi. Dil rohat istaydi. Sakinat qidiradi,ammo shoirs she’riyatida buning aksi. Uning qalbi qiynoqqa tashna bu tashnalikni esa tog‘lar viqori bilan so‘ndirmoqchidek ko‘rinadi. Bazida o’ziga Cho’lpon ijodidagi “Men shoirmi?” misrasini hamrox qilib oladi. Bu savolga javob izlash ta’siriga tushgandek ko‘rinadi.

Men shoir bo‘ldimmi she’rim boshog‘i,
Chumolilarga yem bo‘lgan dunyoda.
Yo‘q bo‘lsa osmonning uzun sirtmog‘i,
Bosh olib ketaman Surxondaryoga.

Shoirlik dardi eng ko’xna dard.Unga yo‘liqqan insonda haqiqatning ko‘zlari ko‘rinadi. Sirtmoqsiz osmon, chumolisiz boshoq izlash mashaqqati huriyat osmoni va yolg‘onsiz dunyo motivlariga yonma-yon tura oladi. Bu satrida shoira o‘ziga berilgan savolning javobi mohiyatini, uning zalvorini yaxshi anglayapti.

Malohat vahmida qoldi yuragim
Qobog‘imni qazo supur-sidirmish
Shakkoklik xomai taqdir xo‘ragim
Yurak qizi fano sholini kiymish

Shoira she'rlarida tasavvufiy ramzlar va dunyoviy go'zallik qorishib ketgan. Bu misrada ishq va borliq haqidagi falsafiy tasavvurlar ifodalanadi. Fano va sholi so'zlari shunchaki tushuncha ifodalamaydi, balki chuqur metaforik ma'noga ega.

Fano : O'tkinchilik va yo'qlik orasidagi bahsdan mulohaza qiladi. Tasavvufdan bunday qarash esa inson o'z "menidan" voz kechib, nafs kishanlarini mahkam bog'laganligi anglatadi.

Sholi : bizni o'rab turgan moddiy dunyo. U doimiy emas , eskirib yo'q bo'ladigan matodir. Inson sovuqotgandan qandaydir mato bilan isinishga harakat qiladi, dunyo kirliklaridan bezganda esa fano sholini kiyib uning o 'tkinchi ekanligini anglaydi. She'rning keyingi misrasiga qaraymiz:

Malohat vahmida qoldi yuragim,
Shikan oh-vohidan ko'ngil qilar kayf,
O yurak, qanoti shol kapalagim,
Senga kafansizlik ming attang , ming xayf

Shikan fosr-tojikcha shikast so'zi bilan o'zakdosh bo'lib biror narsaning ezilishi , shikastlanishi kabi ma'nolarni anglatadi.

Kayf arabchda zavq , zavqlanish , rohatlanish ma'nolarini anglatadi. Ushbu misralarni o'qir ekansiz Abdulla Oripovning

Ox, qanday o'lim bu sevgi o'limi,
Unga na qabr bor, na bir janoza

satrlari yodimizga tushadi. Yurak -oq orzularga o'ralgan makon. Uni lomakonlik bilan sinmaslik unga o'limni tilamslik masalalari insoniyat uchun ustuvor masaladir. Ikkala ijodkor ham yurak va sevgi o'rtasidagi masalani janoza motivlari bilan bog'layotgani adabiyotimizda noyob topilmalardandir.

Shoira iftixor ila sen desam qalamimdan to'kiladi yog'dular, nozanin maysalarning kiprigida orzular deb yurtga qiyosiz ta'rif beradi. Nozanin maysa nisbatan erkalik, yangi topilma bor, jonlantirish chiroyli qo'llangan: tinchlan ona tuproqning unda yillarning avji sahrolaring tubida daryolarning mavji bor.

Jannatmakon – ota yurtni qalb ko'zi bilan ko'radi, istaklarini izhor etadi...

Biyobonda adashgan fazodan yo'l toparmish,
Dilsizlar yurtin sevsa o'tlig' ko'ngil toparmish.
Yorsiz yashash mumkinu g'arib ne yo'l toparmish,
Osmonlarning parchasin yuraklarga sochgan yurt,
Subhlarning darchasin jaranglatib ochgan yurt.

Bu misralarda olqish, maqtov, chapak yo'q. O'tkir mushohadaga undaydigan, ibratli naqlsimon fikrlar majmuasi bor. She'r oxirida muddao yuzaga chiqadi:

Ruhim yulduz istaydi, dil qorako'z istaydi,
Yurtim ta'rifingdaman, she'rim baxtso'z istaydi…

Chinakkam shoirlik har qanday so'zga jilo berishda, taroshlashda, undan kerakli mohiyatini yuzaga chiqarishda ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Quronov D. "Adabiyotshunoslikka kirish". –Toshkent:Meros, 2004. –B 76-77.
2.SolijonovY. "Detallar tilga kirganda"-"O'zbekiston adabiyoti va san'ati"gazetasi, 2007-yil, No5.
3.Tog'ayeva G. Saylanma:IIJ. –Toshkent: "O'zbekiston", 1994. –B.30.
4.Toshboyev .O. "Bujur toshi"- "Hurriyat" ,2025. –. B.7
5. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.

6. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

7. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.

8. Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.